



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref

BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavatov T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOT KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME'YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	
XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o'g'li	
XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....	65
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI, EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	69
Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	



O'ZBEKISTONDA GID VA EKSKURSOVODLAR SOHASIDA INNOVATSIYALAR VA YANGILIKLAR.....	73
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
Xojaqulova Nargiza	
MA'LUMOTLAR BAZASIDA MURAKKAB SO'ROVLAR YARATISHNING NAZARIY	
ASOSLARI, FORMAL MODELLARI VA OPTIMALLASHTIRISH NAZARIYASI.....	78
Daminova Barno Esanovna	
Shermatova Shaxzoda Bakhtiyor qizi	
Ne'matova Sevinch Ismat qizi	
Xolmakhmatov Navruzbek Farrux o'g'li	
THE ROLE OF CLOUD COMPUTING IN ENHANCING ENTERPRISE PERFORMANCE.....	83
Daminova Barno Esanovna	
Jumayev Khayit Fayzullo ugli	
Normuminov Zayniddin Bekmurod ugli	
Bozorov Ilkhom Soatmurod ugli	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MACHINE LEARNING APPLICATIONS	
IN MODERN INFORMATION SYSTEMS.....	88
Daminova Barno Esanovna	
Nurmamatov Nodirbek	
Turdimurodov Tulkin	
Xudoyorov Sardor	
RAQAMLI INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI VA TATBIQI	93
Daminova Barno Esanovna	
Jo'rayeva Xusniya Murtozoqul qizi	
Beshimova Munisa Usmon qizi	
BIG DATA ANALYTICS: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES FOR DECISION-MAKING PROCESSES.....	97
Daminova Barno Esanovna	
Narimonova Sevinch Shaka kizi	
Pulatkhonova Sitabonu Vohid kizi	
BLOCKCHAIN TECHNOLOGY AND ITS IMPACT ON SECURE DIGITAL TRANSACTIONS	102
Daminova Barno Esanovna	
Ruziyeva Oynisa Rahimkul kizi	
Hamidova Nozima Ulugbek kizi	
AHOLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM DARAJASINING ROLI.....	108
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
CYBERSECURITY CHALLENGES AND SOLUTIONS IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION	112
Daminova Barno Esanovna	
Lapasova Sevinch Elmurod kizi	
Ismoilova Rushana Kuvondik kizi	
ПРЕВРАЩЕНИЕ ТАШКЕНТА В РЕГИОНАЛЬНЫЙ АВИАЦИОННЫЙ	
ХАБ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ	
ОТНОШЕНИЙ И СИСТЕМНЫЕ УГРОЗЫ.....	117
Убайдуллаев Сирожиддин Жамшид угли	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RAQAMLI QIYOFASI: SUN'IY INTELLEKT	
VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDAGI SO'NGGI TENDENSIYALAR.....	124
Narmanov Ulug'bek Abdugapporovich	
Jumaboyev Abror Shuhrat o'g'li	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI VA	
ULARNING SAMARADORLIGI.....	129
Egamnazarova Gulnoza Shuxrat qizi	



RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Egamnazarova Gulnoza Shuxrat qizi
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xoshimov P. Z.
O'zbekiston Milliy universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanishi sharoitida raqamli to'lov tizimlarining holati va samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining shakllanishi va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini o'rganish maqolaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimlari, raqamli to'lovlar, to'lov samaradorligi, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. Основной целью данной статьи является анализ состояния и эффективности цифровых платёжных систем в условиях формирования экономики Нового Узбекистана. Кроме того, одной из важных задач исследования является изучение процессов становления цифровых платёжных систем в Узбекистане и перспективных направлений их дальнейшего развития.

Ключевые слова: цифровые платёжные системы, цифровые платежи, эффективность платежей, цифровая экономика.

Abstract. The main purpose of this article is to analyze the current state and efficiency of digital payment systems in the context of the formation of the New Uzbekistan economy. In addition, one of the key objectives of the study is to examine the development of digital payment systems in Uzbekistan and identify their promising directions for future growth.

Keywords: digital payment systems, digital payments, payment efficiency, digital economy.

KIRISH

Hozirgi davrda dunyoda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka erishish maqsadida ilm-fanga doimiy ravishda yangiliklar va o'zgarishlar kiritilmoqda. XXI asr iqtisodiyotining asosiy o'zgarishlaridan biri an'anaviy to'lov usullaridan zamonaviy raqamli to'lov tizimlariga o'tish hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida boshlangan raqamlashtirish jarayoni to'lov tizimlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, Frederik S. Mishkin o'zining *The Economics of Money, Banking and Financial Markets* asarida bank tizimi, moliyaviy bozorlar va zamonaviy to'lov vositalarining iqtisodiyot rivojidagi o'rnini nazariy jihatdan asoslab bergan. Mahalliy tadqiqotchilardan R.Sh. Salayev o'zining «Raqamli valyutalar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari» nomli ilmiy maqolasida raqamli valyutalarning iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda mamlakatda raqamli moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilgan. MAVZUNING huquqiy asoslarini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3945-son qarori hamda «Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida»gi PQ-381-son qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida raqamli to'lov tizimlari, ularning iqtisodiy samaradorligi va mamlakat iqtisodiyotiga ta'siriga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Xususan, Frederik S. Mishkinning bank tizimi va moliyaviy bozorlarga oid nazariy qarashlari hamda R.Sh. Salayevning raqamli valyutalarni rivojlantirish istiqbollari haqidagi ilmiy xulosalari tahlil qilindi. Shuningdek,



tadqiqotning huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli to'lov tizimlari va raqamli mahsulotlar sohasiga oid qarorlari tashkil etdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda to'lov tizimlarini raqamlashtirish jarayoni XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlariga borib taqaladi. Insonlarda tez, oson va qulay to'lov usullariga ehtiyoj yuzaga keldi va bu to'lov tizimlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Raqamli to'lov qilish (elektron to'lov) naqd pulsiz, raqamli yoki elektron hisoblar va qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu turdagi to'lov dunyoning turli nuqtalaridan turib pul o'tkazish imkonini beradi. Raqamli to'lov usullari:

- bank kartalari orqali to'lov qilish;
- mobil ilova yoki internet saytlari orqali to'lov qilish;
- biometrik ma'lumotlar (masalan, Face ID) orqali to'lov qilish;
- elektron hamyonlar va hisoblar orqali to'lov qilish.

To'lovlarni elektron shaklda amalga oshirishning rivojlanish tendensiyalari, asosan, Yevropa va AQShda kuzatildi. Jumladan, 2007-yilda AQShda PayPal to'lov tizimi ishga tushirildi va ushbu tizim tez, oson hamda ishonchli elektron to'lovlarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Google ham 2011-yilda o'zining Google Wallet tizimini ishga tushirdi va bu orqali foydalanuvchilarga smartfon orqali to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston ham mustaqillikka erishgandan so'ng bank va to'lov tizimlarining huquqiy asoslarini yaratishni boshladi. Xususan, 1994-yil 18-mart kuni Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini takomillashtirish, pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 146-son qarori qabul qilindi. Bu orqali to'lovlar uchun talab qilinadigan vaqt miqdori sezilarli darajada kamaydi. Ushbu sohada bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlardan biri 1998-yilda sodir bo'ldi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Jahon banki o'rtasida ilk shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Jahon banki moliyalashtirish orqali respublika moliyasini va to'lov tizimlarini takomillashtirishga, bank telekommunikatsiya tizimini va ochiq axborot tizimini yaratishga yordam berishi asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda to'lov tizimlarini shakllantirish va raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu jarayondagi yana bir muhim qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrda «Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–3945-son qaroriga asosan Milliy banklararo markazning 2018-yilning II choragida tashkil etilishi bo'ldi. «Humo» to'lov tizimining 2019-yilning II choragidan boshlab ishga tushirilishi esa raqamli to'lov tizimlari rivojlanishining birinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda COVID-19 pandemiyasi tufayli karantin e'lon qilingach, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish ulushi keskin oshdi. Jumladan, davlat xizmatlari uchun to'lovlar va kommunal to'lovlar onlayn amalga oshirila boshlandi (1-rasm).



1-rasm. Markaziy Bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni, ming birlikda¹

Yuqorida keltirilgan rasmdan shuni ko'rish mumkinki, Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni doimiy ravishda oshib bormoqda. Oxirgi yillarda esa kuzatilgan tranzaksiyalar sonida sezilarli o'sish qayd etilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki sayti, <https://cbu.uz/uz/payment-systems/interbank/>



Naqdsiz to'lov qilishning bir nechta afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud. Elektron to'lov tizimlarining asosiy afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- qulaylik, ya'ni joylashuv va vaqtdan qat'i nazar elektron to'lovlarni amalga oshirish mumkinligi;
- tezlik, ya'ni to'lovlarning bir necha soniya yoki daqiqada amalga oshirilishi;
- shaffoflik, ya'ni pul mablag'lari oqimini oson kuzatish mumkinligi;
- davlat xizmatlari va kommunal to'lovlarni amalga oshirish uchun qulaylik;
- qog'oz hujjatlar sarfini va naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish;
- ortiqcha talablar va amaliyotlarsiz amalga oshirilishi.


Yuqorida keltirilgan afzallik va ustunliklarga qaramasdan, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirishning ham bir qator kamchiliklari mavjud, jumladan:

- internetga bog'liqlik, ya'ni internet tezligi yoki sifati past bo'lgan hududlarda raqamli to'lov tizimlaridan foydalanish bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi;
- komissiya to'lovlari, ya'ni naqd to'lovdan farqli o'laroq elektron to'lovlar ma'lum miqdordagi xizmat haqini to'lashni talab qiladi;
- raqamli savodxonlik darajasining pastligi, ya'ni yoshi katta avlod uchun yangi raqamli tizimlardan foydalanish qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin;
- maxfiylik bilan bog'liq muammolar, ya'ni axborotlarning sizib chiqishi yoki shaxsiy ma'lumotlarning sotilishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin;
- kiberhujum va firibgarlik ehtimoli, chunki hozirgi kunda firibgarlik holatlari va pul mablag'larining elektron hamyonlar hamda hisoblardan yechib olinishi bilan bog'liq holatlar kuzatilmoqda.

To'lov tizimlari faoliyatini raqamlashtirishning bir qator ustuvor maqsadlari mavjud. Eng asosiy maqsadlardan biri to'lov tizimlarining samaradorligini oshirishdir. Bundan tashqari, elektron to'lovlarning oqimini kuzatish va boshqarish osonroq. Xususi sektoridagi asosiy to'lovlar naqd pul orqali amalga oshirilishi tufayli pul oqimini nazorat qilish hamda foyda solig'ini to'liq va to'g'ri hisoblash qiyinchilik tug'diradi. Shu sababdan xususi sektorda elektron to'lovlarni joriy qilish eng asosiy masalalardan biri sifatida belgilandi. Bu esa daromadlar va pul mablag'larining yo'nalishini aniqlash hamda kuzatilmayotgan iqtisodiyot ulushini qisqartirishga yordam beradi. Yana bir muhim maqsadlardan biri naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va bu orqali naqd pul emissiyasi uchun talab qilinadigan resurslar miqdorini qisqartirishdir. Elektron to'lovlarni joriy etishdan ko'zlangan yana bir maqsad korrupsiyaning oldini olishdir. Xususan, davlat xizmatlari uchun to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish va shaffof to'lovlarni ta'minlash orqali korrupsiya darajasini pasaytirish ko'zda tutilgan.

Raqamli to'lov tizimlarini amaliyotga joriy qilishning boshlang'ich bosqichlaridan biri ushbu turdagi to'lov usulidan foydalanuvchi fuqarolarning kiberxavfsizligini ta'minlashdan iborat. Elektron to'lovlarni kiberhujumlardan himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi «Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralarini to'g'risida»gi PQ–381-son qarori muhim rol o'ynaydi. Ushbu qarorda raqamli to'lov xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlarga bir qator talablar qo'yildi. Jumladan, 2024-yil 1-iyundan boshlab to'lov tizimi operatorlari faqat aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilishi va to'lov tizimlari operatorlari hamda to'lov tashkilotlarining minimal ustav kapitali belgilandi.

Raqamli to'lov tizimlarini joriy etish nafaqat xususi sektor va tijorat banklarida, balki davlat xizmatlarida ham amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, 2026-yil 1-apreldan boshlab belgilangan ma'lum tovar va xizmatlar uchun to'lovlar faqat naqdsiz shaklda amalga oshirilishi belgilangan. Hozirgi kunga kelib Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — MyGov.uz saytida ko'rsatiladigan barcha davlat xizmatlari uchun to'lovlarni elektron shaklda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa davlat xizmatlarida korrupsiya darajasining kamayishiga hamda samaradorlikning oshishiga yordam bermoqda (2-rasm).



2-rasm. Umumiy pul tushimlari tarkibi va dinamikasi²

2 Gazeta.uz axborot sayti, <https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/20/cash-noncash/>



Yuqorida keltirilgan rasmdan shuni aytish mumkinki, oxirgi 3 yilda respublika hududida amalga oshirilgan to'lovlar tarkibida naqdsiz to'lovlarning ulushi oshib bormoqda. Masalan, 2023-yilda jami to'lovlarning 38 foizi terminallar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 43 foizga yetdi. Afsuski, ushbu sohada bir qator muammolar mavjud. Asosiy to'siqlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- chekka hududlarda elektron to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatining cheklanganligi;
- internetning sifati yoki tezligi past bo'lgan hududlarda ushbu turdagi to'lovlardan foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi;
- ayrim xizmat turlari yoki tovarlar to'lovi uchun komissiya talab qilinishi;
- kiberxavfsizlik va ma'lumotlar daxlsizligi bilan bog'liq masalalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu to'siqlar sohada qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning amaliyotga tatbiq etilishini sekinlashtiradi. Ushbu muammolarning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida quyidagi tavsiyalardan foydalanish mumkin:

- banklar va moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi operatorlarda mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlash;
- ushbu sohadagi startaplarni qo'llab-quvvatlash;
- chekka hududlarda ham internet sifati yaxshilash va elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan sharoitlarni ta'minlash;
- ushbu sohadagi yangi qonunlar, Prezident farmonlari va yangiliklardan aholini muntazam xabardor qilish;
- sun'iy intellekt yordamida mijozlarni qo'llab-quvvatlovchi markazlarni tashkil etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasida muhim o'rin egallamoqda. Shu jumladan, O'zbekistonda to'lov tizimlarini raqamlashtirishning bir qator istiqbolli yo'nalishlari mavjud. Bunday transformatsiya jarayonida nafaqat banklar va tegishli davlat organlari, balki aholi vakillari ham katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozim, zeroki firibgarlikdan zarar ko'radigan eng asosiy shaxs aholining o'zidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 30-noyabrdagi «Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida» PQ–381-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2018-yil 19-sentabr, PQ–3945-son.
3. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 13th ed. Pearson Education Limited, 2022.
4. Salayev R.Sh. Raqamli valyutalar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari // *Raqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika)*. – 2024. – № 6.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Banklararo to'lov tizimi. URL: <https://cbu.uz/uz/payment-systems/interbank/>
6. *infoCOM.uz* – tahliliy-axborot jurnali.
7. *Gazeta.uz*. Naqd va naqdsiz to'lovlar bo'yicha maqola. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2026/02/20/cash-noncash/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>